<b>Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</b>	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish .....	1163
<b>Menlibayeva Azima Oralbayevna</b>	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
<b>Nuritdinova Xurshida Narpulatovna</b>	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari .....	1169
<b>Sattorova Mohira</b>	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends .....	1172
<b>Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli</b>	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati .....	1176
<b>Tolipova Noilaxon Nodir qizi</b>	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish .....	1183
<b>Umida Bovanova Abdurahobovna, Bo'riboeva Navbahor Faxriddinov</b>	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari .....	1186
<b>Xaqberdiyeva Sh. T.</b>	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
<b>Yusupov Lutfullo Sayitturayevich</b>	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
<b>Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna</b>	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish .....	1201
<b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi</b>	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari .....	1204
<b>Astanakulova Manzura Buribayevna</b>	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	1209
<b>Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna</b>	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari .....	1212
<b>Islomov Eldor Yusupovich</b>	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish.....	1215
<b>Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi</b>	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык .....	1220
<b>Марупова Дилфуза Давроновна</b>	





Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English .....	1326
<i>Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari .....	1329
<i>Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna</i>	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism .....	1334
<i>Nomanova Ma'rifat Abdillayevna</i>	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari .....	1337
<i>Olimova Fotima Botirovna</i>	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida).....	1341
<i>Omonqulova Dildora Xusniddin qizi</i>	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish .....	1348
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish .....	1351
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida) .....	1355
<i>Salomov Ilhom Salimovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish .....	1359
<i>Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna</i>	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....	1362
<i>Sobirova Mashxura Ubaydullayevna</i>	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi .....	1365
<i>Sodiqova Nigora Turayevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi .....	1368
<i>Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi</i>	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari.....	1371
<i>Teshayev Sobit Sodik o'g'li</i>	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi .....	1374
<i>Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi.....	1377
<i>Xakimov Saydullo Tulanboyevich</i>	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari .....	1380
<i>D. A. Xodjimatoeva</i>	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati .....	1385
<i>Zafar Xudaykulov</i>	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish .....	1388
<i>Yusupova Munisa</i>	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	1391
<i>Zokirova Nargiza Akbarjonovna</i>	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida .....	1395
<i>Zokirova Sohiba Muhtoralievna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi</i>	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов.....	1398
<i>Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна</i>	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1403
<i>Yarmatov Raxmboy Baxramovich</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish .....	1409
<i>Bolibekov Alisher Abdusalomovich</i>	

Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari .....	1412
<b>Djumayeva Dildora Isroilovna</b>	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri.....	1416
<b>Hayitboyeva Nilufar G'anjionovna</b>	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi .....	1421
<b>Maxammatova Feruza Olimovna</b>	
O'zbekistonda virtual muzeylar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	1424
<b>Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Yusupova Mohinur Ulug'bekovna</b>	
Xalqaro ta'lim tajribasi asosida o'quvchilarda tafakkur erkinligini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari .....	1434
<b>Maxammatova Ma'muraxon Jalilovna</b>	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarda pedagogik taksonomiya ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	1438
<b>Turdiyeva Shoxidaxon Anvardjanovna</b>	
Tibbiyot texnikumi talabalari klinik tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari: konseptual yondashuvlar va ilmiy talqinlar .....	1443
<b>Axmedov Marifxan Mamatxanovich</b>	
Valeologik tamoyillarning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	1448
<b>Begmatova M. T.</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish.....	1452
<b>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</b>	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolik kompetensiyasi dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	1456
<b>Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich</b>	
Oilada ota-ona va bola munosabatlaridagi pedagogik-psixologik omillar.....	1460
<b>Exsonova Feruza Turdixo'jayevna</b>	
Педагогико-психологические аспекты формирования социокультурной компетентности будущих учителей средствами музейной педагогики .....	1464
<b>Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi</b>	
Serebral falaj(bsf)tashxisli bolalarda respirator-nutq mexanizmlarining buzilishi va korreksion yondashuvlar.....	1469
<b>Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi</b>	
Milliy harakatli o'yinlar talaba yoshlar tarbiyasida rivojlanishining zamonaviy roli va ahamiyati .....	1473
<b>Mirzayev Dilshod Khamidovich</b>	
O'smir qizlarda deviant xulqni profilaktika qilish .....	1477
<b>Mo'minova Dilrabo Murodillayevna</b>	
Arab tilshunosligida ma'no, tuzilma va bayon nazariyasining shakllanishi Sakkokiy qarashlari asosida tahlil.....	1481
<b>Abdullayev Olimjon</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar kadrlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	1487
<b>Yuldasheva Munisa Ibrohimovna</b>	
Xorijiy tillarni o'qitishda ijtimoiy-madaniy kompetensiya .....	1492
<b>Yormatova Gulnoz Qayumovna</b>	
Developing Imagination and Narrative Thinking in Young Learners Through English Storytelling Activities.....	1497
<b>Madjitova Oyshakhon Mukhammadganiyevna, Anvarova Muslima</b>	
Effectiveness of Online Resources in Teaching Professional Vocabulary to Philology Students .....	1508
<b>Yusupova Zarrina</b>	
Modern Automotive Lexicon: Formation Processes, Semantic Fields, and Functional Usage .....	1511
<b>Yuldasheva Mastona Muxubillayevna</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishda "Atrof va men" metodikasidan foydalanish .....	1514
<b>Uralova Nurxon Maxadovna</b>	
Chet tili bo'yicha A1, A2, B1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar (lingvistik kompetensiya) tahlili .....	1519
<b>Tojiyeva Anora Baxtiyorovna</b>	



Гендерных различия прокрастинации.....	1526
<i>Рахмонова Гузал Жамшидовна</i>	
A System of Software that Develops the Intellectual Potential of Students in Teaching Mathematics .....	1529
<i>Toxirova Malika Muzaffar qizi</i>	
O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida .....	1535
<i>Maxkamova Muborak Yusupovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	1543
<i>Raximova Zilola Alimbayevna</i>	
Ona tili darsliklari ta'limi mazmunini lingvistik ekspertiza qilish metodikasi .....	1547
<i>Majidova Aziza</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....	1551
<i>Sharipova Gulruksor Nurkabilovna</i>	
Oliy texnika ta'limida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini o'qitishning innovatsion metodik asoslari .....	1554
<i>Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li</i>	
STEAM tamoyillari asosida rivojlantiruvchi muhit yaratish .....	1558
<i>Umarova Muqaddasxon</i>	
Autistik spektr buzilishi: DSM-5 va ICD-11 tasniflari, tadqiqotlar va jamiyatdagi ahamiyati.....	1562
<i>Tuxtayeva Maxfirat</i>	
STEAM texnologiyasi asosida xorijiy til (ingliz tili) o'rgatish.....	1566
<i>Teshaboyeva Zumradxon</i>	
Cultivating Social-Emotional Learning (SEL) in Classrooms.....	1569
<i>Choriyev Ilxom Kenjayevich</i>	
Kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari .....	1573
<i>Mamatkabilov A. X.</i>	
Sun'iy intellekt – speechace dasturi yordamida o'quvchilarning ingliz tilida talaffuz malakasini oshirish ....	1578
<i>Nabiyeva Shahnoza Alijon qizi</i>	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	1583
<i>Qurvanboeva Diyora Muzaffar qizi</i>	
STEAM ta'limining O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari.....	1588
<i>Abdukarimova E'zoza Fazliddin qizi, Bayjigitova Dilorom Baxtiyarovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida jarayonlarning boshqarishning innavatsion texnologiyalari .....	1592
<i>Uzaqov Nomozali Hamdamovich</i>	
Kimyoni o'qitish jarayonida virtual laborotoriyadan foydalanish .....	1596
<i>Murodova Sitorabonu Bahodir qizi</i>	
Raqamli platformalardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarning media ko'nikmalarini shakllantirish.....	1599
<i>Safarov Feruz Saminjon o'g'li</i>	
Qoraqalpoq xalq an'analari vositasida maktab o'quvchilarini an'anaviy tarbiyalash (Bo'zatov tumani maktablari misolida).....	1603
<i>Dosjonova Nilufar Rustam qizi</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	1607
<i>Abira Bakhramova</i>	
Kichik maktab yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxslararo munosabatini korreksiyalashda ertak terapiyasidan foydalanish.....	1613
<i>Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi</i>	
Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida bir qator tarkibiy komponentlarning uyg'un rivoji.....	1617
<i>Mirzaxojayeva Dilrabo To'lqin qizi</i>	
O'quv mashg'ulot guruhida musoboqa oldi mashg'ulotlar tuzilishi (badminton misolida).....	1621
<i>Ismoilova Fotima Ismoil qizi</i>	
Alohida ajratilgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish davomida ularning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirish zaruriy omil ekanligi to'g'risida.....	1626
<i>Qozoqboeva Xanifaxon Shavkatjon qizi</i>	



Methodological Foundations for Shaping the Creative Activity of Younger Pupils in Solving Mathematical Problems .....	1630
<a href="#">Dzhurakulova Adolat Khalmuratovna</a>	
Jadidlar merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashini faollashtirish metodini takomillashtirish .....	1638
<a href="#">Bekchanova Ozoda Otajon qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv motivatsiyasini rivojlantirish.....	1641
<a href="#">Alibayeva Dildora Raxmatilla qizi</a>	
Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish.....	1644
<a href="#">Bolibekov Alisher Abdusalomovich</a>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari .....	1647
<a href="#">Djumayeva Dildora Isroilovna</a>	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri.....	1650
<a href="#">Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna</a>	
Emotional Burnout of Teachers as a Factor Influencing Professional Activities .....	1655
<a href="#">Kamilova Nadira Gayratovna, Abdullaeva Nelufar Karimjanovna</a>	
Методика развития профессионально-речевых компетенций будущих специалистов .....	1663
<a href="#">Комилова Мукаррам Кобилжоновна</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari va samarali metodlari .....	1666
<a href="#">Koziyeva Fazilat</a>	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi .....	1671
<a href="#">Maxammatova Feruza Olimovna</a>	
Deviant xulq-atvor shakllanishining nazariy va eksperimental tadqiqotlar tahlili .....	1674
<a href="#">Xolmurotova Shoxista Mirzaliyevna</a>	
IJF yangi qoidalarining dzyudochilar texnik arsenaliga ta'siri: 2020 va 2024-yilgi olimpiadalar qiyosiy tahlili.....	1677
<a href="#">A. T. Saydullayev</a>	
Системный подход к внедрению мультилингвальных методов: разработка структурно-функциональной модели в педагогическом вузе .....	1681
<a href="#">Жумамуратова Юлдуз Бахтияровна</a>	



# O'RTA MAXSUS O'QUV YURLARI TALABALARIDA MUOMALA MADANIYATINI TARBIYALASH IJTIMOY- PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Maxkamova Muborak Yusupovna

Renessans ta'lim universiteti

“Pedagogik ta'lim va psixologiya” kafedrası professori

**Annotatsiya:** Maqolada o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyati shaxsiy sifat sifatida muhim o'rin egallashi yoritilgan. Tadqiqotda pedagogik muomala madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy asoslari ochib berilgan. Shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlari pedagoglarining talabalar bilan muomala odobini shakllantirish tizimi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala odobining tarbiyalanganlik darajasi aniqlangan va tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** muomala, tizim, ma'naviyat, madaniyat, zamonaviy bilim, ko'nikma, uslubiy yondashuv, pedagogik boshqaruv, ta'lim, tarbiya, urf-odatlar, an'analar, insoniylik, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, muomala madaniyati, suhbat, pedagogik fikrlash, o'quv jarayoni, metodlar, o'qitish jarayoni, pedagogik jarayon, tahlil, pedagogik tizim, kreativ fikrlash, psixologik xususiyatlar, muomala odobi, muloqot vositasi.

**Abstract:** The article highlights that the culture of communication among students of secondary specialized educational institutions occupies a significant place as a personal quality. The socio-spiritual foundations for the formation of pedagogical communication culture are revealed. The study analyzes the system of developing communication etiquette between teachers and students in secondary specialized educational institutions. As a result of the research, the level of formation of communication etiquette among students of secondary specialized educational institutions was identified and analyzed.

**Key words:** communication, system, spirituality, culture, modern knowledge, skills, methodological approach, pedagogical management, education, upbringing, customs, traditions, humanity, pedagogical activity, pedagogical skill, communication culture, conversation, pedagogical thinking, educational process, methods, teaching process, pedagogical process, analysis, pedagogical system, creative thinking, psychological characteristics, communication etiquette, means of communication.

**Аннотация:** В статье показано, что культура общения у студентов средних специальных учебных заведений занимает важное место в структуре личностных качеств. Раскрываются социально-духовные основы формирования культуры педагогического общения. Проанализирована система формирования этикета общения педагогов средних специальных учебных заведений со студентами. В результате исследования выявлен и проанализирован уровень воспитанности этикета общения у студентов средних специальных учебных заведений.

**Ключевые слова:** общение, система, духовность, культура, современные знания, навыки, методический подход, педагогическое управление, образование, воспитание, обычаи, традиции, гуманность, педагогическая деятельность, педагогическое мастерство, культура общения, беседа, педагогическое мышление, учебный процесс, методы, процесс обучения, педагогический процесс, анализ, педагогическая система, креативное мышление, психологические особенности, этикет общения, средство общения.

## KIRISH

Ta'lim sohasidagi islohotlardan bosh maqsad – ta'lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik prinsiplarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va urf-odatlarini, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda o'qituvchilar va pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyat ochib berish hamda uni har tomonlama rag'batlantirish, bilim va ko'nikmalarning puxtaligini ta'minlaydigan zamonaviy didaktik vositalarni qo'llashni keng ko'lamda yo'lga qo'yishdan iborat.

Mamlakatning kelajagi fuqarolarning boy ma'naviyati, madaniyati va bunyodkorligiga tayanadi. "Zero, eski ta'lim-tarbiya asosida yangi jamiyatni qurib bo'lmaydi". Shu munosabat bilan ta'lim mazmuni quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

- mustaqilligimizni, istiqlolimizni his eta oladigan, o'zligini anglab yetadigan fuqarolarni tarbiyalash;
- respublikamizning aql-zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish;
- jamiyat, davlatimiz va oila oldidagi mas'uliyatini anglaydigan yetuk shaxsni shakllantirish;
- axloqiy pok, jismoniy barkamol, Vatan tuyg'usini yuksak anglaydigan fidoyi insonni, izlanuvchan va tashabbuskor sog'lom avlodni tarbiyalash;
- faqat savod o'rganish bilan chegaralanib qolmaydigan, o'rganganlarini hayotga tatbiq eta biladigan shaxsni tarbiyalash;
- yangi demokratik jamiyatni qurish, unda yashash va ishlashni biladigan yoshlar ongini tarbiyalash <sup>[1]</sup>.

O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyati shaxs sifatleri tarkibida o'ziga xos o'rin tutadi. Ustoz, o'qituvchi va tarbiyachining qiyofasi Markaziy Osiyoda hamda jahonning boshqa mamlakatlarida yashab irod etgan donishmandlar, mutafakkirlar va pedagoglarning asarlarida bayon etilgan.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ularda belgilangan yo'l-yo'riqlar majmui pedagogik faoliyat va o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablarga mos keladi. Albatta, bunday talablar davrlar o'tishi, ijtimoiy tuzumlar o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Lekin umuminsoniy, boy ma'naviyatga ega bo'lgan talablar o'qituvchi odobida o'z kuchini saqlab qolaveradi. Muomala madaniyati bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalar M. Ochilov, R. A. Mavlonova, M. Jumayev, B. Jo'rayeva, M. Mahkamova kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, nazariy masalalarda bo'lajak o'qituvchining umumpedagogik tayyorgarligi sifatida qaralib, o'qituvchining ma'naviy, uslubiy va kasbiy madaniyatiga shaxs madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari sifatida keng e'tibor berilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan mualliflarning ishlari bugungi davr uchun xarakterli bo'lib, ko'p jihatdan ta'lim va madaniyat sohasidagi aloqalar muammolarini yorqin ifoda etadi. Yangicha pedagogik fikrlashni shakllantirish zarurati (o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalashni takomillashtirishning asosiy sharti hisoblanadi) bilan bog'liq tadqiqotlar, ayniqsa, M. Ochilov, R. A. Mavlonova, O. Musurmonova, M. Mahkamova, M. Jumayev, F. Yuzlikayev va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

#### O'rta maxsus o'quv yurti pedagoglarining talabalar bilan muomala odobini shakllantirish tizimi

Ijtimoiy ma'naviy ehtiyoj, kasb va shaxsiy sifatlar
Ongli kasb tanlash va o'quv jarayoni
Pedagogik muloqat madaniyati qonuniyatlari va qoidalari
Ta'lim tarbiyaga ilmiy metodik yondashuv. Muloqat yuli.
Pedagoglarning talabalar bilan munosabati
Ta'lim tarbiya natijalari
Ilmiy amaliy tavsiyalar

Pedagogik muloqot vazifalari:

- talabalarga yangi bilim va ma'lumotlar berish, ular bilan fikr almashish;
- o'qituvchi va talabalarining bir-birini o'zaro bilishini ta'minlash;
- muloqot ishtirokchisi shaxsining imkoniyatlarini ochish va ularning muammolarini mustaqil hal etishga yo'naltirish;
- o'qituvchi shaxsiy fikrlarining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligini ta'minlash;
- muloqot ishtirokchilarining bir-biridan qanoat hosil qilishiga erishish;
- hamkasblar va talabalarga nisbatan to'g'ri ohang hamda muloqot malakalarini qo'llash.



Pedagogik muomala madaniyatini tarkib toptirishning ijtimoiy-ma'naviy asoslari:

- vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, elga hurmat, sadoqat, xalq tuyg'usi va ishonchiga hamdardlik;
- oilaga sadoqat, diyonatlilik va vijdonlilik;
- kichik yoshdagilarga, ota-onaga hurmat va g'amxo'rlik;
- mardlik, kamtarlik, adolatlilik, rostgo'ylik, yaxshilikka intilish, imkoniyatli va e'tiqodli bo'lish, o'z kasbining ustasi bo'lish va uni sevish, ijodkorlik, til va dil birligi, so'z va ish birligi, shirinzabonlik <sup>[4]</sup>.

O'rta maxsus o'quv yurtlarida pedagoglar faoliyatini tashkil etish:

1. O'zbek xalq pedagogikasidan foydalanish, uning milliylik va baynalmilallik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiyada qo'llanilgan tajriba va usullarni o'rganish.
2. Ota-onalarning xalq pedagogikasini tushunishi va undan xabardorlik darajasini muntazam oshirib borish maqsadida ular bilan ishlash.
3. O'zbek xalq og'zaki ijodining ta'lim-tarbiyaga oid namunalaridan axloqiy, aqliy, mehnat va jismoniy tarbiya jarayonida foydalanish.
4. Buyuk mutafakkirlar, olimlar, yozuvchi va shoirlar ijodidagi tarbiya masalalariga oid fikrlar asosida bolalarga tushuncha berish.
5. Asrlar davomida yaratilgan urf-odatlar, an'analar va marosimlarni xalqimizning milliy xususiyatlari asosida qayta tiklashga erishish.

Pedagoglar muomala madaniyatini tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari:

1. Pedagoglar bilan muayyan mavzular bo'yicha suhbatlar olib borish.
2. Maxsus tarbiya soatlari o'tkazish.
3. Ota-onalar bilan turli tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish.
4. Turli mazmundagi darsdan tashqari mashg'ulotlar uyushtirish.
5. Kollejda o'qituvchilar va talabalar hamkorligida turli tadbirlar o'tkazish.

O'rta maxsus o'quv yurti rahbarining o'qituvchilar bilan pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish mezonlari:

1. Pedagoglarning insoniylik mavqei, ijtimoiy xulqi, xatti-harakatlari va dunyoqarashini shakllantirish.
2. Pedagoglarning kasbiy-ijodiy faoliyati.
3. Pedagoglarning o'z kasbiga nisbatan faol munosabati va kasbni egallashi.
4. Pedagoglarning pedagogik vaziyatlarni umumlashtirish va tahlil etish usullarini egallashi.
5. Pedagoglarning yangi pedagogik vazifalarga ta'sir ko'rsatishi, pedagogik vaziyatlarni o'zgartira olishi hamda pedagogik jarayonni rivojlantirishni oldindan ko'ra bilishi.
6. Pedagoglarning o'z faoliyatiga doir individual uslubga ega bo'lishi, ya'ni o'quvchilarning bilim olganligi va tarbiyalanganligidan yuqori ko'rsatkichlarni ta'minlovchi pedagogik faoliyat va pedagogik ta'sir ko'rsatishining barqaror birikmasiga ega bo'lishi.
7. O'qituvchining pedagogik faoliyatining doimiy takomillashib borishi.

O'rta maxsus o'quv yurtlari rahbarining talabalar faoliyatiga ta'sir ko'rsatishining asosiy turlari:

1. Tashkil etuvchi (yo'l-yo'riqlar, maslahatlar, nasihatlar).
2. Baho beruvchi (ta'kidlovchi) – bildiruvchi baho orqali o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirish.
3. Intizomga undovchi – bevosita savol shaklida tanbeh berish yoki jazolash.

O'qituvchining talabalar bilan muloqotdagi holati:

1. Ijobiy (ma'qullash, ijobiy baholash).
2. Salbiy (haqoratlash, ishonchsizlik, qo'rqitish).
3. Neytral (taklif, ta'na, bevosita ko'rsatma) <sup>[5]</sup>.

O'rta maxsus o'quv yurti talabalarida muomala odobining tarbiyalanganlik darajasini aniqlash:

1. Talabalar ta'limiga muammoli yondashuv.
2. Pedagogik ta'lim standartlarini mukammal o'zlashtirish.
3. Mustaqil ishlarni amalga oshirish va pedagogik amaliyotda erishilgan natijalar.
4. Izlanuvchanlik, ijodkorlik va o'z ustida ishlash.

Tajribada to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala odobini tarbiyalashga qaratilgan tavsiyalarni talabalar muhokamasiga havola etish maqsadga muvofiq deb topildi.

1. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning individual xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.
2. Bo'lajak pedagog faoliyatiga oid yaqqol misollar keltirish orqali ularning egallayotgan bilimlari, ko'nikmalari va ijobiy fazilatlarining zaruriyati hamda ahamiyatini tahlil qilishga o'rgatish mumkin.
3. Ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarda tajribali pedagoglar tajribasidagi yaqqol misollar hamda ko'rgazmali namunalardan keng foydalanish, o'qitish va mashg'ulotlar uyushtirish vositalari, metodlari, ta'sir ko'rsatish yo'llari va uslublarini namoyish etish alohida ahamiyat kasb etadi.
4. O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini shakllantirishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, holatlari, tashqi va ichki omillar ta'siri ostida o'zgarib turishi, faollik jarayonida shaxsning individual psixologik xususiyatlari namoyon bo'lishini tushuntirish metodlaridan foydalanish hamda yosh omillari, toliqish darajasi, hissiy va aqliy zo'riqish ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda o'qitishni yo'lga qo'yish zarur.

O'rta maxsus o'quv yurtlarida pedagogika va psixologiyaga oid barcha maxsus fanlar chuqur va har tomonlama puxta o'tilishi lozim. O'quv yurtlarida diqqat-e'tiborni talabalarga o'qitilayotgan maxsus fanlarga qaratish muhimdir. Ayniqsa, talabaning muomala madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik mahorat fanini chuqur o'rganish zarur. Bundan tashqari, darslarni o'tkazish metodikasi ham zamonaviy talablarga javob berishi kerak.

Bu holatni talabalar yuqori kurslarga o'tgani sari tobora anglab yetadilar. Quyida talabalarning mutaxassislikka oid fanlarini pedagogika kollejida qay darajada o'qitilayotgani tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash jarayonini o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida empirik va nazariy usullar uyg'unlashtirildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, anketa, suhbat hamda pedagogik hujjatlarni tahlil qilish orqali to'plandi. Talabalarning muomala madaniyati darajasini aniqlashda maxsus ishlab chiqilgan diagnostik savollar va baholash mezonlaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy-tahliliy usul asosida tahlil qilinib, kurslar kesimida solishtirildi. Statistik ishlov berishda foizli nisbatlardan foydalanildi. Shuningdek, tajriba-sinov jarayonida olingan natijalar umumlashtirilib, pedagogik jarayonda muomala madaniyatini shakllantirish samaradorligi baholandi. Tahlil natijalari asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: I-II kurs talabalarining mutaxassislik fanlaridan qoniqqan yoki qoniqmaganligi ko'rsatilgan.

Kurs	Talabalar	Ixtisoslikka doir o'qitilayotgan fanlar					
		Nazariy darslar			Amaliy darslar		
	Soni	Qoniqarli	Juda qoniqarli emas	Qoniqarsiz	Qoniqarli	Juda qoniqarli emas	Qoniqarsiz
I	23	15	3	5	13	5	5
II	23	11	5	7	13	4	6

Mutaxassislik bo'yicha nazariy darslarni I-kurs talabalarining 15 tasi qoniqarli, 3 tasi juda qoniqarli emas, 5 tasi mutlaqo qoniqarsiz deb baholagan. II-kursda ushbu fanlarni talabalarning 11 tasi qoniqarli, 5 tasi juda qoniqarli emas, 7 tasi mutlaqo qoniqarsiz deb baholagan. III-kursda esa talabalarning 11 tasi qoniqarli, 4 tasi juda qoniqarli emas, 8 tasi mutlaqo qoniqarsiz deb javob bergan.



Mutaxassislik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni pedagogika kollejarida o'qitishga talabalar o'z munosabatlarini quyidagicha bildirganlar: I-kursda talabalarning 13 tasi bu fanlarni o'qitish qoniqarli, 5 tasi qoniqarli emas deb baholagan. II-kursda 13 tasi qoniqarli, 4 tasi unchalik qoniqarli emas, 6 tasi qoniqarsiz deb javob bergan. Talabalarning javoblaridan ma'lum bo'ladiki, ular kursdan kursga o'tgan sari fanlarni o'qitishga nisbatan tanqidiy yondashishni boshlaganlar. Mutaxassislik bo'yicha o'qitilgan nazariy darslar va amaliy mashg'ulotlarni kurs darajasi oshgan sari qoniqarsiz deb baholagan talabalar soni ortib borgan <sup>[2]</sup>.

Demak, talabalarda ta'lim-tarbiya jarayoni davomida o'zlari tahsil olayotgan fanlarning o'qituvchilar tomonidan qay darajada o'qitilayotganini tahlil qila bilish hamda tanqidiy mulohaza yuritish qobiliyatlari rivojlanib borgan. Talabalarning yuqoridagi mulohazalarini yanada aniqroq o'rganish maqsadida ularga "Nima sababdan siz o'quv yurtida o'qitilayotgan fanlarni qoniqarsiz deb hisoblaysiz?" degan savol bilan murojaat qilinganda, ular quyidagi sabablarni ko'rsatganlar:

- A) Talabalarning bilim darajalarini hisobga olmaslik.
- B) Har bir guruhni ikkiga bo'lib dars o'tilmasligi.
- C) Pedagoglarning talabchanligining sustligi.
- D) Darslarda o'quv qo'llanmalari va darsliklardan foydalanilmasligi.
- E) O'qituvchilarning yuzaki munosabati.

Talabalar ushbu kamchiliklar bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga to'sqinlik qilayotganini va o'tilayotgan darslardan qoniqmasliklariga sabab bo'layotganini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, ular maxsus fanlarni o'zlashtirishni kasbiy kamolotning eng muhim omili sifatida baholaganlar.

Shu sababli mazkur fanlarni o'qitishga alohida e'tibor berilishini istab, II-kurs talabalaridan biri: "Maxsus fanlarni o'qitishda guruhlarini ikkiga bo'lib dars o'tilsa, biz yanada chuqur bilimga ega bo'lamiz", – deb bildirgan. Talabalarning javoblaridan ko'rinadiki, o'qituvchining ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil eta bilishi bevosita dars jarayonida yangi materialning to'liq o'zlashtirilishiga bog'liq. Ta'lim va tarbiyaning zamonaviy metodlari, shakllari va vositalaridan foydalanish, ularni aniq shart-sharoitlarda oqilona uyg'unlashtirish, zamonaviy texnika vositalaridan, jumladan, kompyuterlardan foydalana olish, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga differensial yondashuvni amalga oshirish, ularning bilim va xulq-atvorini asosli baholash talabalarning o'qishga nisbatan jiddiy munosabatini shakllantiradi.

Pedagogik amaliy mashg'ulotlar bo'lg'usi mutaxassislarining nazariy mashg'ulotlar jarayonida olgan bilimlarini bevosita amaliyotda qo'llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu mashg'ulotlardan ko'zda tutilgan maqsad, birinchidan, talaba yoshlarning o'z mutaxassisligini yanada chuqurroq egallashini ta'minlash, ikkinchidan, ularda yuksak insonga xos bo'lgan muomala madaniyatini shakllantirish hamda ushbu fazilatlarini kelajak avlod tarbiyasida namoyon etishdan iborat bo'lishi lozim.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun yoshlar va jamoatchilik bilan ishlashning samarali usullaridan foydalanish, ularni takomillashtirib borish va yangiliklarni joriy etish zarur. Ushbu usullar tarbiya amaliyotida quyidagi yo'nalishlarda keng qo'llanilgan:

- talabalar bilan muayyan mavzular bo'yicha suhbatlar olib borish;
- maxsus tarbiyaviy soatlar o'tkazish;
- darsdan tashqari turli mashg'ulotlarni tashkil etish.

Mazkur tadbirlarning har biri o'z xarakteriga ko'ra talaba yoshlarda yuksak xulq-atvor, odob va muomala madaniyatini shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan. Maxsus tarbiya soatlari bevosita muomala madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular alohida tanlangan guruhlar bilan reja asosida olib boriladigan joriy suhbatlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar o'rta maxsus o'quv yurtiga qadam qo'yganda pedagogik muloqotning mohiyati, uning tarkibiy jihatlari va ko'nikmalari haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmaydi. Shu sababli, ayniqsa, pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishda muloqot madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Tajribada pedagogika fanlarini an'anaviy o'rganishga nisbatan muloqot madaniyatining nazariy va amaliy asoslarini izchil o'rganish yuqori samaradorlikni ko'rsatadi. Masalan, I-kursda "Mutaxassislikka kirish" fanida 6 soat davomida pedagogik kasbning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik kasbga qo'yiladigan talablar, pedagogik faoliyatning qirralari va pedagogik kasb mahoratini egallash yo'llari bilan tanishtiriladi <sup>[3]</sup>.

Pedagogik kasbga doir badiiy asarlar asosida kitobxonlar konferensiyalari tashkil etiladi hamda kursni o'rganish jarayonida talabalarning hayoti, ma'naviy qiyofasi, muomala madaniyati va tushuntirish madaniyati bilan tanishtiriladi.

Pedagogika fanining umumiy asoslarini o'rganishda tadqiqotimiz predmeti bo'lgan pedagogik muloqot muammosidan kelib chiqildi va odatdagi o'qitishda har bir pedagogik masalaning nazariy hamda amaliy asoslari yoritildi. Kuzatuvlar natijasida talabalarda pedagogik faoliyat yo'nalishlari va unda pedagogik muloqotning tutgan o'rni, pedagog va tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlarning maqsadga muvofiqligi, pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini bilishga bo'lgan ehtiyoj shakllantirilgani aniqlandi. Zero, pedagogik muloqot butun pedagogik texnologiyaning tub boshlang'ich masalasidir.

Umumiy pedagogikani o'rganish jarayonida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifati o'qituvchining tayyor-garligi va pedagogik mahoratiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlanadi. Talabalarni o'qituvchilik kasbga tayyorlashda pedagogika fani muhim o'rin tutib, ularni kasbga oid pedagogik bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuv yo'llari va pedagogik fikrlash madaniyatini shakllantiradi [2].

Pedagogikani o'rganishda metodologik asos sifatida O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda jamiyatni insonparvarlashtirish va demokratiyalashtirish g'oyalari tayangan holda ish olib borildi. Bu esa fanni o'rganish jarayonida pedagogik muloqot va munosabatlarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qilish imkonini berdi.

"Suhbatdoshingizning suhbat davomidagi xatti-harakatlari sizning jahlingizni chiqaradimi?" degan savolga talabalar javoblari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tekshiruvchilarning javoblari	Kurslar			
	I	II		
Foiz hisobida	65	58		

Jadvalda aks ettirilganidek, I-kurs talabalarining 65 % "ha", 35 % "yo'q", II-kurs talabalarining esa 58 % "ha", 42 % "yo'q" deb javob bergan. Biz I-II kurs talabalariga nima sababdan "yo'q" deb javob berganliklari haqida murojaat qilganimizda, ular, ayniqsa, ushbu kurslarda o'tkaziladigan pedagogik amaliyot jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganliklarini ma'lum qilganlar.

Demak, o'rta maxsus o'quv yurtlarining ta'lim-tarbiya jarayonida va o'qituvchilar ta'siri ostida talabalarda muomala qila bilish malakasi shakllangan. Bunga, avvalo, malakali o'qituvchilarning mavjudligi sabab bo'lgan. Talabalar doimo ularning faoliyatiga ergashish va ularga taqlid qilishlarini bildirishgan. Shunday ekan, ushbu ziyolilarning ta'lim va tarbiya jarayoni natijasida talabalar kasbga to'g'ri yo'naltirilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

I-II kurs talabalarining javoblari shuni ko'rsatadiki, ular maktabdan faqat ijobiy, ba'zan esa idealistik tasavvurlar bilan kelishgan. Keyinchalik kasbning haqiqiy yo'nalishiga o'tilganda, uning og'ir va mas'uliyatli ekanligini anglay boshlaganlar. Shu bois maktabda alohida soatlar ajratilib, o'quvchilarga kasb haqida tushunchalar berilishi zarur.

Demak, o'quvchilar maktab partasidayoq kasbga yo'naltirilishi lozim. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatilganidek, bolalarning qobiliyati va layoqatiga qarab ixtisoslikka doir fanlarni chuqur o'rganishi muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, tadqiqot natijalarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, maktablarda pedagogik sinflar yoki yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilgan, fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflarni tashkil etish hamda ularda mazkur kasbning pedagogik-psixologik asoslarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, o'quv rejasida I-kursdayoq "Mutaxassislikka kirish" fanini chuqur o'zlashtirish orqali pedagogik kasbshunoslikni o'rgatish zarur.

"O'rta maxsus o'quv yurtini tamomlagandan so'ng qaysi oliy o'quv yurtiga o'qishga kirmoqchisiz?" degan savolga I-II kurs talabalarini quyidagicha javob berganlar (3-jadval).

3-jadval

Kurslar	O'rta maxsus o'quv yurtini bitirgandan so'ng qaysi oliy o'quv yurtiga o'qishga kirmoqchisiz?			
	Javoblar % hisobida			
	Talabalar soni	Pedagogika oliy o'quv yurtiga	Madaniyat oliy o'quv yurtiga	Texnika oliy o'quv yurtiga
1	40	16	10	14
2	40	18	10	12

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, talabalar o'qituvchilik kasbini egallashda tajribali o'qituvchilarga taqlid qilish, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisiga ergashish, ota-onasiga o'xshashga intilish kabi omillar asosida moti-

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>



vatsiyaga ega bo'ladilar. Ushbu kasbga bo'lgan qiziqish, asosan, maktab davridan (5–6-sinflardan) boshlanib, o'rta maxsus o'quv yurtida tahsil olish jarayonida yanada takomillashadi.

Shu sababli maktabda 5–6-sinflardan boshlab o'quvchilarga kasb tanlash va tanlangan kasblar haqida tizimli tushunchalar berish, kasbga to'g'ri yo'naltirish ishlarini olib borish muhimdir. Bundan tashqari, o'quvchi va talabalarda tanlangan kasbi, badiiy adabiyotlar, pedagogik amaliyot hamda kasbga bo'lgan qiziqish muomala madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlash lozim.

Shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlarida talabalarni maktablarda o'tkaziladigan pedagogik amaliyotga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, xalqimizning milliy an'analari va urf-odatlarini, buyuk siymolarning pedagogik qarashlarini ijodiy o'rganish asosida bo'lg'usi mutaxassis yoshlarning o'qish, mehnat, o'zaro munosabatlar, o'z-o'ziga munosabat va umuman hayotiy faoliyatining barcha sohalarida muomala qila bilish malakalarini shakllantirish pedagogik faoliyatning muhim vazifalaridan biridir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lg'usi mutaxassislar o'rta maxsus o'quv yurtiga qadam qo'yganda pedagogik muloqotning mohiyati, uning tarkibiy jihatlari va ko'nikmalari haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmaydi. Shu sababli pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishda muloqot madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Tajriba shuni ko'rsatadiki, pedagogika fanini an'anaviy o'rganishga nisbatan muloqot madaniyatining nazariy va amaliy asoslarini izchil o'rganish yuqori samaradorlik beradi.

Masalan, I-kursda "Mutaxassislikka kirish" fanida 6 soat davomida pedagogik kasbning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik kasbga qo'yiladigan talablar, pedagogik faoliyatning qirralari va pedagogik kasb mahoratini egallash yo'llari bilan tanishtiriladi. Pedagogik kasbga doir badiiy asarlar bo'yicha kitobxonlar konferensiyalari tashkil etilib, kursni o'rganish jarayonida talabalarning hayotiy tajribasi, ma'naviy qiyofasi, muomala madaniyati va turmush madaniyati bilan tanishtiriladi. Ya'ni, bo'lg'usi mutaxassis o'z kasbi haqida dastlabki nazariy bilimlarga ega bo'ladi.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, talabalarda pedagogik faoliyat yo'nalishlari va unda pedagogik muloqotning tutgan o'rni, pedagog va tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlarning maqsadga muvofiqligi, pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini bilish zarurligi shakllantiriladi. Zero, pedagogik muloqot butun pedagogik texnologiyaning tub boshlang'ich masalasidir<sup>[3]</sup>.

Umumiy pedagogikani o'rganish jarayonida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifati o'qituvchining tayyorligi va pedagogik mahoratiga bog'liqligi aniqlanadi. Talabalarni o'qituvchilik kasbiga tayyorlashda pedagogika fani alohida o'rin tutib, ularni kasbga oid pedagogik bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuv yo'llari va pedagogik fikrlash madaniyatini shakllantiradi.

Pedagogikani o'rganishda metodologik asos sifatida O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli<sup>2</sup> Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda jamiyatni insonparvarlashtirish va demokratiyalashtirish g'oyalari tayangan holda ish olib borildi. Bu esa ta'lim jarayonida pedagogik muloqot va pedagogik munosabatlarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qilish imkonini berdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonida o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash pedagogika, psixologiya va pedagogika fanlari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni talab qiladi.
2. O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalashning yo'llari va shartlari psixologlar va didaktikachilarning tadqiqot ishlari natijalariga tayangan holda yaratilgan model asosida shakllanadi.
3. O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash uning asosiy komponentlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tavsifnoma orqali namoyon bo'ladi: aksiologik, insonparvarlik, ijtimoiylik, texnologik, axloqiy va ijodiylik.
4. O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyati kichik mutaxassisning masalani mustaqil o'rganishi hamda o'zining ijodiy faoliyatida o'z-o'zini anglay bilishida namoyon bo'ladi.
5. O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini ong va faoliyat fazilatlarini bilan boyitish o'quv jarayonining ilmiyligini ta'minlaydi hamda fanlarni o'qitish samaradorligini oshiradi.
6. O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini shakllantirishda tarbiya shakllari, metodlari va vositalarini tanlashda egiluvchanlik va variantlilik zarurligi, shakllangan sifat darajasi esa o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish bilan uzviy bog'liq ekanligi tajriba-sinov asosida ko'rsatib berildi.

2 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>

7. O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalashning keng tarmoqli muammolari to'liq qamrab olinmagan bo'lsa-da, shakllantiruvchi tajriba natijalari nazorat tavsiflarining barcha ko'rsatkichlari o'zgarishini ko'rsatdi.
8. Tanlov fanlarini o'qitish, anketalashtirish, adabiyotlar tahlilidan foydalanish, maxsus seminarlar o'tkazish muomala madaniyatini samarali shakllantirish yo'llari bo'lib, ular o'quvchilarda tahlil qilish va sintez qilish, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi faoliyatlarni bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda, o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalashning pedagogik tayyorgarlik darajasi oshdi, ularning keyingi hayotiy tajribasi hamda oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirishga bo'lgan munosabati oqilona o'zgardi.

Shu munosabat bilan, o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qator tavsiyalar ishlab chiqildi:

- muomala madaniyatini shakllantirishni bo'lajak kichik mutaxassisni tayyorlashdagi muhim vazifa sifatida qarash; ushbu ijtimoiy sifatni pedagogika fanlari dasturlarida, pedagogika kollejlari darsliklarida asosiy maqsadlardan biri sifatida aks ettirish;
- pedagogik intizom bo'yicha sinovlarda muomala madaniyatining shakllanish darajasini inobatga olish;
- pedagogik fanlarni o'qitish soatlarini oshirish hamda muomala madaniyatini shakllantirishga yordam beruvchi talaba tanlov fanlarini joriy etish;
- shaxs tafakkur madaniyati, pedagogik ijodkorlik, pedagogik improvizatsiya, turli madaniyatlarda yuz berayotgan sabab–qibat aloqalari va ularning zamonaviy hodisalarga ta'sirini anglash kabi madaniy ahamiyatga ega fazilatlarining shakllanishiga ko'maklashish;
- madaniyatlar muloqoti metodikasi orqali o'zini teran anglash, o'z xatti-harakatlariga baho berish imkonini yaratish hamda shaxsning tarixiy-axloqiy ongini shakllantiruvchi tadbirlar rejasini uzluksiz amalga oshirish;
- o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash faoliyatining shakl va mazmunini aniqlashda, uni takomillashtirish jarayonida shaxsning individual xususiyatlari va madaniy dunyoqarashini hisobga olish;
- o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyati darajasini oshirish ustidan muntazam nazoratni yo'lga qo'yish, mazkur masalani pedagogika kengashi yig'ilishlarida yiliga kamida bir marta, direktor huzuridagi kengashlarda esa yiliga ikki marta muhokama qilib borish;
- o'quvchining ijtimoiy mas'uliyati, kelajakka ongli nazar tashlashi va jamiyat rivojlanishi ehtiyojlariga mos harakat qilishga tayyorligini ta'minlovchi sharqona tarbiya tamoyillarini amaliyotga joriy etish;
- o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalashda o'rganilgan va tavsiya etilgan metodik ko'rsatmalarni umumdidaktik kategoriya hamda o'qitish metodlari sifatida metodist-o'qituvchilar tomonidan kengaytirish, ularni dastur materiallari bilan uzviy bog'lash va bu orqali o'qitish jarayoniga qo'shimcha yuklama kiritmaslik.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 29-04-2019.
2. Pedagogika: ensiklopediya. Toshkent, 2015. 368 b.
3. Mahkamova M. Yu. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020-yil.
4. Sharon Vunne. Kasbiy pedagogika va mahorat. AQSH, 2015.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Xalq merosi, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.